ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLARDA NATIJALAR MUHOKAMASI

XXIV-RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

YAKUNLARI BO'YICHA ILMIY ISHLAR TO'PLAMI

Issue - 9(2026) Available at www.uznauka.uz

SUN’IY INTELLEKT VOSITALARIDAN FOYDALANIB SODIR ETILADIGAN JINOYATLARGA TAYYORGARLIK KO‘RISHNING JINOYAT-HUQUQIY TAVSIFI

To‘xtayeva Aziza Dusmuratovna

Toshkent davlat yuridik universiteti, magistrant

e-mail: atukhtaeva03@mail.ru

Annotatsiya*: Mazkur tezisda sun’iy intellekt vositalaridan, xususan, dipfeyk texnologiyalaridan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarga tayyorgarlik ko‘rishning jinoyat-huquqiy tavsifi tahlil qilindi. Tadqiqot davomida ushbu turdagi tayyorgarlik xatti-harakatlarining Obyektiv va subyektiv tomonlarini aniqlashda, shuningdek ularni mavjud jinoyat qonunchiligi doirasida malakalashtirishda yuzaga keladigan muammolar ochib berildi va ularni bartaraf etish yuzasidan aniq yechimlar keltirildi. Xorijiy davlatlar tajribasini qiyosiy o‘rganish asosida milliy qonunchilikni takomillashtirishning ilmiy-amaliy ahamiyati ko‘rsatib o‘tildi.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, dipfeyk, jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish, jinoyat-huquqiy tavsif, raqamli jinoyatchilik, javobgarlikni takomillashtirish, shaxsiy huquq va erkinliklar.*

АННОТАЦИЯ

В данной работе проведён анализ уголовно-правовой характеристики приготовления к преступлениям, совершаемым с использованием средств искусственного интеллекта, в частности технологий дипфейк. В ходе исследования были раскрыты проблемы, возникающие при определении объективной и субъективной сторон подобных приготовительных действий,

а также при их квалификации в рамках действующего уголовного законодательства, и предложены конкретные пути их решения. На основе сравнительного изучения опыта зарубежных государств показана научно-практическая значимость совершенствования национального законодательства.

Ключевые слова: искусственный интеллект, дипфейк, приготовление к преступлению, уголовно-правовая характеристика, цифровая преступность, совершенствование ответственности, личные права и свободы.

ANNOTATION

This thesis analyzes the criminal-law characterization of preparation for crimes committed through the use of artificial intelligence tools, in particular deepfake technologies. The study reveals the problems arising in determining the objective and subjective elements of such preparatory acts, as well as in their qualification under the existing criminal legislation, and offers concrete solutions to these problems. Based on a comparative study of foreign countries' experience, the scientific and practical significance of improving national legislation is demonstrated.

Keywords: artificial intelligence, deepfake, preparation for a crime, criminal-law characterization, digital crime, improvement of liability, personal rights and freedoms.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi, xususan, dipfeyk (deepfake) algoritmlarining ommalashuvi jinoyatchilikning yangi, yuqori darajada yashirin va texnik jihatdan murakkab shakllarining vujudga kelishiga olib kelmoqda. Amerikalik huquqshunoslar Deniel Sitron va Robert Chesni ta’kidlashicha, dipfeyklar raqamli soxtalashtirishning yangi bosqichini ifodalaydi va an’anaviy dalil-isbot tizimlarini tubdan qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi[1]. Dipfeyk vositasida yaratilgan kontent inson sha’ni va qadr-qimmatiga tajovuz qilish, shaxsga nisbatan jismoniy, moddiy yoki ma’naviy zarar yetkazish, shuningdek davlat va jamoat xavfsizligiga tahdid soladigan jinoyatlarni sodir etishda tobora keng o‘rin egallamoqda. Bunday jinoyatlarning aksariyati tayyorgarlik bosqichi ma’lumot to‘plash, dasturiy vositalarni sozlash, sun’iy kontent yaratish va uni tarqatish kanallarini tayyorlashdan iborat murakkab faoliyatni talab etadi. M.X. Rustambayev ta’kidlaganidek, jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish instituti jinoiy niyatning obyektiv voqelikka aylanish jarayonining dastlabki bosqichi bo‘lib, uning ijtimoiy xavfliligi tayyorgarlik harakatlarining jinoyat natijasiga qanchalik yaqinlashganligi bilan belgilanadi[2]. Biroq milliy jinoyat qonunchiligida ushbu tayyorgarlik xatti-harakatlarining raqamli muhitdagi, xususan, SI vositalari yordamidagi ko‘rinishlarining jinoyat-huquqiy tavsifi va ularga nisbatan javobgarlik choralari yetarlicha ishlab chiqilmagan.

[1]Citron D., Chesney R. Deep Fakes: A Looming Challenge for Privacy, Democracy, and National Security // California Law Review, 2019, Vol. 107, P. 1753–1820.

[2]Rustambayev M.X. Jinoyat huquqi. Umumiy qism: darslik. – Toshkent: O’zbekiston Respublikasi, 2020. – B. 214–219.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining umumiy qismida jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish tushunchasi mavjud bo‘lsa-da, u an’anaviy jinoyatchilik modeliga mo‘ljallangan bo‘lib, raqamli muhitda amalga oshiriladigan tayyorgarlik xatti-harakatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini ya’ni texnik vosita yaratish, algoritmni o‘rgatish, sintetik ma’lumot generatsiya qilishni to‘liq qamrab olmaydi. Shu bois mazkur masalani ilmiy jihatdan tadqiq etish va qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jinoiy-huquqiy doktrinada jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish deganda, jinoyat sodir etish uchun shart-sharoit yaratish, jumladan, qurol-aslaha, vosita yoki boshqa buyumlarni izlab topish, tayyorlash yoxud moslashtirish, jinoyatchilar guruhini tashkil etish, reja tuzish kabi harakatlar tushuniladi, biroq jinoyat ushbu shaxsga bog’liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra oxirigacha yetkazilmaydi. D.G. Kamalova o‘zining dissertatsiyasida jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish institutining o‘ziga xos jihati sifatida uning tugallanmagan jinoyat tarkibiga mansubligini va tayyorgarlik harakatlarining jamiyat uchun xavflilik darajasi jinoyat ob’ektiga tahdidning real yaqinligi bilan belgilanishini asoslaydi[3]. Mazkur tushunchaning mohiyati raqamli muhitda ham saqlanib qoladi, lekin “vosita tayyorlash” tushunchasi tubdan yangi mazmun kasb etadi, bunda moddiy buyum o‘rniga dasturiy algoritm, ma’lumotlar bazasi yoki neyron tarmoq modeli tayyorlanadi.

[3]Kamalova D.G. Jinoyatga tayyorgarlik ko'rishning xususiyatlari va uning uchun javobgarlikni takomillashtirish: yurid. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss.. – Toshkent: TDYU, 2018.

Sun’iy intellekt vositalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarga tayyorgarlik ko‘rishning o‘ziga xos xususiyati shundaki, tayyorgarlik bosqichi, odatda, bir nechta alohida texnik harakatlardan iborat bo‘ladi, jumladan:

- jabrlanuvchining shaxsiy ma’lumotlari, ovoz yozuvi yoki tasvirlarini to‘plash;
- mavjud dasturiy vositani yoki modelni ushbu maqsadga moslashtirish;
- sintetik kontent (dipfeyk tasvir, ovoz yoki video) yaratish;
- uni tarqatish yoki jabrlanuvchiga yetkazish kanalini tayyorlash.

Deniel Sitron va Robert Chesni dipfeykni “raqamli imitatsiya” (digital impersonation) shakli sifatida ta’riflab, u insonning yuzi, tanasi yoki ovozini boshqa shaxsnikiga almashtirib, yuz bermagan voqealar haqida tasavvur uyg’otish imkonini beradi deb ta’kidlaydi[4]. Ushbu bosqichlarning har biri alohida olinganda ijtimoiy xavfli bo‘lmasligi mumkin, biroq ularning majmui aniq jinoiy niyatni amalga oshirishga qaratilgan bo‘lsa, jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish belgilarini tashkil etadi.

Obyektiv tomondan, SI yordamida tayyorgarlik ko‘rish moddiy ya’ni maxsus dastur yozish va nomoddiy ya’ni ochiq manbali modelni o‘rgatish uchun ma’lumot to‘plash kabi shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin. M.P.Gudyer bunday harakatlarni “qadr-qimmatga qarshi raqamli tajovuz” (digital assault on dignity) tushunchasi orqali izohlab, ularning zararliligi nafaqat moddiy, balki shaxsning ijtimoiy mavqei va ishonchiga yetkazilgan putur bilan ham o‘lchanishi lozimligini

[4]Gordon-Tapiero A., Kaplan Y., Parchomovsky G. Deepfake Liability // North Carolina Law Review, 2026. – P. 4–7 (SSRN: abstract_id=6445584).

ta’kidlaydi[5]. Bunda alohida e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihat “ikki tomonlama foydalanish” muammosidir, ko‘pgina SI vositalari qonuniy maqsadlarda ham, jinoiy maqsadlarda ham qo‘llanilishi mumkin, shu bois faqat vositaning mavjudligini emas, balki uni tayyorlash va moslashtirishga qaratilgan niyatni isbotlash zarurati yuzaga keladi.

Subyektiv tomondan, tayyorgarlik xatti-harakatlari faqat to‘g’ridan-to‘g’ri qasd bilan sodir etilishi mumkin ya’ni shaxs o‘zining harakatlari jinoyat sodir etish uchun shart-sharoit yaratishini anglaydi va buni istaydi. Amalga oshirilgan tadqiqotlarda qayd etilishicha, sun’iy intellekt yordamidagi jinoyatlarda niyatni isbotlash asosan raqamli izlarning mavjudligi bilan bog’liq bo‘lib, bu esa tergovda raqamli-kriminalistik ekspertizaning rolini keskin oshiradi[6]. An’anaviy jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish instituti raqamli muhitga to‘g’ridan-to‘g’ri ko‘chirilishi mumkin emas uning tarkibiy belgilari SI texnologiyalarining texnik xususiyatlarini hisobga olgan holda qayta talqin qilinishini taqozo etadi.

AQShda 2025-yilda qabul qilingan TAKE IT DOWN akti roziliksiz tarqatiladigan intim tasvirlarni, jumladan, SI yordamida yaratilgan sintetik tasvirlarni tarqatishni jinoiy javobgarlikka tortish bilan bir qatorda, platformalarga bunday kontentni o‘z vaqtida olib tashlash majburiyatini yuklaydi[7], biroq tayyorgarlik bosqichidagi harakatlarni alohida tarkib sifatida ajratmaydi. K.Langa ta’kidlashicha, AQShning bir qator shtat qonunlari dipfeykni “jinoiy yoki

[5]Goodyear M.P. Deepfakes and Dignity // Arizona State Law Journal, 2025 (forthcoming), manuscript at 6.

[6]Zhao L. Deepfakes and Criminal Liability // International Journal of Cyber Criminology, Vol. 22, No. S4, 2024. – P. 112–130.

[7]TAKE IT DOWN Act, Pub. L. No. 119-12, 119th Congress (2025).

fuqarolik-huquqiy buzilishga ko‘maklashish” maqsadida yaratish yoki tarqatishni umumiy tarzda taqiqlaydi, biroq bu yondashuv tayyorgarlik bosqichidagi texnik harakatlarni alohida tan olishga yetarli emas[8]. Yevropa Ittifoqining Sun’iy intellekt to‘g’risidagi Reglamenti (AI Act) yuqori xavfli SI tizimlarini ishlab chiqish va joriy etishga nisbatan oldindan baholash mexanizmini joriy etib, u preventiv-ma’muriy vosita sifatida jinoiy-huquqiy chorani o‘z ichiga oladi[9]. Germaniya Jinoyat kodeksining umumiy qismidagi tayyorgarlik institute faqat og’ir jinoyatlarga nisbatan qo‘llanilishi mumkinligi, shuningdek Buyuk Britaniyaning Computer Misuse Act nomli qonunida “jinoyat sodir etishga ko‘maklashuvchi dasturiy vositani yaratish yoki tarqatish” alohida tarkib sifatida belgilanganligi e’tiborga loyiqdir.

O‘tkazilgan tahlil asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi: birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining umumiy qismida jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish tushunchasini kengaytirib, unga “jinoiy maqsadda axborot texnologiyalari vositasini, shu jumladan sun’iy intellekt algoritmini yaratish, sozlash yoki moslashtirish” jumlasini alohida izoh sifatida kiritish maqsadga muvofiq; ikkinchidan, shaxsning noroziligisiz uning tasviri, ovozi asosida yaratilgan sintetik materialni tarqatish maqsadida tayyorlash harakatlarini alohida malakalashtiruvchi belgi sifatida nazarda tutish; uchinchidan, raqamli izlarni tergovda dalil sifatida qabul qilish tartibini protsessual jihatdan aniqlashtirish;

[8]Langa K. Crafting Legislation to Combat Threats Posed by Deepfakes // Boston University Law Review, 2021. – P. 93–95.

[9]Regulation (EU) 2024/1689 of the European Parliament and of the Council of 13 June 2024 laying down harmonised rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act).

to‘rtinchidan, SI vositalarini yaratuvchi va tarqatuvchi yuridik shaxslarning javobgarligini ma’muriy javobgarlik doirasida mustahkamlash.

Ushbu takliflar jinoiy javobgarlikni ortiqcha kengaytirishga emas, balki mavjud institutning raqamli muhit sharoitida aniq va bashoratli qo‘llanilishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, jazoning liberallashtirilishi va inson huquqlarining himoya qilinishi o‘rtasidagi muvozanatni saqlashga xizmat qiladi.

Ushbu tezis orqali sun’iy intellekt vositalaridan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarga tayyorgarlik ko‘rish an’anaviy tayyorgarlik institutining raqamli ko‘rinishidan iborat bo‘lib, uning o‘ziga xos texnik xususiyatlari mavjudligi aniqlandi. Mazkur xususiyatlar jinoyat qonunchiligida alohida aks ettirilishi, tergovda raqamli-kriminalistik usullarning qo‘llanilishi kengaytirilishi, shuningdek SI vositalarini ishlab chiqaruvchi va tarqatuvchi sub’ektlarning javobgarligi mustahkamlanishi zarur. Xorijiy davlatlar tajribasi, xususan, AQSh va Yevropa Ittifoqi qonunchiligi milliy huquqiy tizimni takomillashtirishda foydali yo‘nalishlarni ko‘rsatadi, biroq ularni to‘g’ridan-to‘g’ri ko‘chirish emas, balki milliy huquqiy an’analarga moslashtirilgan holda joriy etish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. TAKE IT DOWN Act, Pub. L. No. 119-12
2. Regulation (EU) 2024/1689 of the European Parliament and of the Council laying down harmonised rules on artificial intelligence (AI Act).
3. Germaniya Federativ Respublikasining Jinoyat kodeksi (Strafgesetzbuch, StGB), § 30-modda.

4. Kamalova D.G. Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rishning xususiyatlari va uning uchun javobgarlikni takomillashtirish: yurid. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. -Toshkent: TDYU, 2018.
5. Rustambayev M.X. Jinoyat huquqi. Umumiy qism: darslik. - Toshkent: 2020.
6. Citron D.K., Chesney R. Deep Fakes: A Looming Challenge for Privacy, Democracy, and National Security // California Law Review, 2019, Vol. 107. - P. 1753-1820.
7. Gordon-Tapiero A., Kaplan Y., Parchomovsky G. Deepfake Liability, North Carolina Law Review, 2026.
8. Goodyear M.P. Deepfakes and Dignity // Arizona State Law Journal, 2025 (forthcoming).
9. Langa K. Crafting Legislation to Combat Threats Posed by Deepfakes //Boston University Law Review, 2021.
10. Legal Gaps in Deepfake Misuse and Criminal Liability // Lex Localis, Vol. 22, No. S4, 2024.
11. www.congress.gov AQSh Kongressi rasmiy sayti (TAKE IT DOWN Act matni).
12. www.eur-lex.europa.eu Yevropa Ittifoqi huquqiy hujjatlari bazasi.